



ZAIF HADIS TUSHUNCHASI VA HADISLARNING ZAIF BO'LISH SABABLARI

Sadirova Mubina Shavkatjon qizi

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi Islomshunoslik fakulteti
Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO" kafedrası mudiri*

Muhabbat Agzamova

Annotatsiya: Mazkur maqolada zaif hadis tushunchasining mohiyati, uning lug'aviy va istilohiy ta'rifi yoritiladi. Hadis ilmining asosiy tamoyillari asosida zaif hadisni sahih va hasan hadisdan farqlash mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada hadislarning zaif bo'lishiga olib keluvchi asosiy omillar sanad zanjirining uzilishi, roviylarning adolat va zabt jihatidagi nuqsonlari, shozlik va yashirin illatlar bayon etiladi. Har bir omilning hadis ishonchliligiga ta'siri qisqacha tushuntirilib, ularning ilmiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: zaif hadis, sahih hadis, hasan hadis, adolat, zabt, shoz hadis, illat.

Islom olamida hadis ilmi Qur'oni Karimdan keyingi eng muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) ning so'zlari, amallari va taqirlari musulmonlar hayotining barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Hadislar dastlab sahobalar tomonidan o'z hayotlarida qo'llanilib, keyinchalik tobeinlar va tabaa tobeinlar orqali hozirgi kunimizgacha yetib keldi. Bu jarayon davomida hadislarni rivoyat qilishda muhaddislar roviylarning taqvosiga, rostgo'yligiga, sanad zanjirining uzluksizligiga va rivoyat matnining ishonchliligiga katta e'tibor berganlar.

Zaif hadislar haqida so'z ketganda, "zaif" atamasining mohiyati, uning istilohiy ma'nosi, qanday shartlar buzilganda hadis zaif bo'lishi va zaiflikning darajalari haqida fikr yuritish zarur hisoblanadi. Hadis zaif bo'lishiga sabab bo'lgan omillar, roviylar bilan bog'liq bo'lib, ularning xotirasi yaxshi bo'lmasligi, ishonchli bo'lmasligi, rivoyat qilgan shaxslar orasidagi uzilish yoki matndagi mujmal, mantiqan mos kelmaydigan jihatlar zaiflikni yuzaga keltiradi. Muhaddislar bu borada yuzlab kitoblar tasnif qilib, zaif hadislarning turlari va ularga sabab bo'lgan nuqsonlarni birma-bir bayon etganlar.



Bugungi zamonaviy axborot oqimining kuchayishi, diniy mavzularda turli noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi va ijtimoiy tarmoqlarda joylanayotgan hadislarning manbasiz va zaif bo‘lishi musulmon yoshlar orasida chalkashliklarni yuzaga keltirib, zaif hadislarni ilmiy asosda o‘rganish ilmiy zarurat va amaliy ehtiyojga aylangan. Har bir hadisning manbasi va ishonchliligi aniqlanmasdan turib, uning asosida hukm chiqarish yoki diniy qarash shakllantirish mumkin emas. Bu esa Payg‘ambarimiz (s.a.v) ning so‘zlarini to‘g‘ri tushunish, u zotning merosini noto‘g‘ri talqin qilmaslik qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi.

“Zaif” so‘zi lug‘atda ismi foil bo‘lib, o‘zagi **ضعف** (zaif bo‘lmoq) fe‘lining beshinchi bobidan olingan bo‘lib “kuchi yo‘qoldi”, “sog‘lig‘i yo‘qoldi”, “vazni yo‘qoldi” va “betob bo‘ldi” degan ma’nolarni anglatadi. “Zaif” so‘zining ko‘pligi **ضعف** و **ضعفاء** و **ضعف** shaklida keladi.⁴⁴

Lug‘aviy jihatdan “za‘f” (**ضعف**) – dastlabki uch harf: dod, ayn va fa – ikki turli ildizga ega bo‘lib, biri quvvatning qarshisini, ikkinchisi esa bir narsaning o‘ziga teng yoki undan ortiq bo‘lishini bildiradi.⁴⁵

“Zaif” so‘zi arab tilida “kuchsiz”, “nimjon”, “zaif” ma’nolarini bildiradi. Bu so‘z dod harfining zammasi (u) bilan ham, fathasi (a) bilan ham o‘qiladi. Quraysh lahjasida zamma bilan, Tamim lahjasida esa fatha bilan aytiladi. Ikkalasi ham bitta ma’noga ega bo‘lib, tananing zaifligiga ham, fikr va aqlning zaifligiga ham ishlatiladi. Imom Azhariy bu fikrni Basra olimlariga nisbat qilgan. Imom Qurtubiy “Zamma bilan o‘qilishi – Payg‘ambar (s.a.v) ning lahjasidir”, – deya ta’kidlagan va bunga Ibn Umar (r.a)ning “Men Nabiy (s.a.v)ga: “Allohu-llazi xolaqokum min zo‘fin (ya’ni fatha bilan)” deb o‘qidim. U zot menga “min zu‘fin” (ya’ni zamma bilan) deb qiroat qilib berdilar”, – degan rivoyatlarini dalil qilib keltirgan. Ba’zi ulamolar uni zamma bilan emas fatha bilan o‘qigan, bu esa aql va fikrdagi zaiflikni anglatgan. Agar u zamma bilan o‘qilsa tana zaifligi nazarda tutiladi.⁴⁶ Bu farqlar juda katta ahamiyatga ega emas, fatha bilan o‘qilganda aql va fikr zaifligidan tashqari tana zaifligiga ham ishlatilgan o‘rinlari mavjud va huddi shuningdek zamma bilan o‘qilganda ham, masalan bunga quyidagi oyatlarni misol qilib keltirsak bo‘ladi:

وَعَلِمَ أَنَّ فَيْكُمُ ضَعْفًا

“...sizlarda ojizlik borligini bildi...” (“Anfol” surasi 66-oyat) bu oyatdagi “ضَعْفًا” so‘zi fatha bilan o‘qilgan bo‘lsada oyatdan tana zaifligi nazarda tutilgan. Imom Osim va imom Hamza ham ushbu oyatni fatha bilan o‘qishgan. Imom Ibn Kasir, imom Abu Amr, imom Nofe, imom ibn Amir va imom Kisoiy esa

⁴⁴ Zaif va ohad xabarlariga amal qilishning hukmi. <https://xadicha.uz/uz/news/870> (12.12.2025).

⁴⁵ Ibn Faris, Mu‘jam maqoyis al-lug‘ati. – Bayrut: Dar al-fikr, 2007 – B. 262.

⁴⁶ Ibn Munzir, Lisan al-arob. – Qohira: Dar al-Maorif, 2016. – B. 2587



zamʼma bilan oʻqishgan.⁴⁷

اللَّهُ الَّذِي خَلَقَكُمْ مِنْ ضَعْفٍ ثُمَّ جَعَلَ مِنْ بَعْدِ ضَعْفٍ قُوَّةً ثُمَّ جَعَلَ مِنْ بَعْدِ قُوَّةٍ ضَعْفًا وَشَيْبَةً

“Alloh sizni zaiflikda yaratgan, soʻngra zaiflikdan keyin quvvatli qilgan, soʻngra quvvatdan keyin yana zaiflik va qarilik oriz qilgan Zotdir...” (“Rum” surasi 54-oyat) oyatida ham “ضَعْفٍ” soʻzi fatha bilan zikr qilingan boʻlsada undan tana zaifligi nazarda tutilgan. Aynan shu oyat haqida Qatoda “Zaiflik” yaʼni “ضَعْفٍ” dan murod maniydir va oyat davomidagi “zaiflik” esa “keksalik”dir”, – degan⁴⁸. “Qomus al-muhit”da “ضَعْفٍ” kasra bilan oʻqilsa tana aʼzolari va suyaklarni anglatishi haqida ham aytilgan⁴⁹.

Muhaddislar istilohida esa zaif hadis deb “sahih” hadisga qoʻyilgan yaʼni sanadning uzluksizligi, roviylarning adolati va zabti, shoz va illatdan xoli boʻlishi kabi shartlaridan birini yoʻqotgan, ammo “hasan” hadis darajasiga yetmagan hadisga aytiladi. Yuqorida zikr etilganidek bu tur hadisning “mardud” (“rad etilgan”, “qaytarilgan”), yaʼni amal qilinmaydigan guruhiga mansubdir.

Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Mustalahul Hadis” kitobida “zaif hadis”ga quyidagicha taʼrif beradi: “Zaif” soʻzi lugʻatda “qoviy” – “kuchli”ning ziddi, yaʼni “kuchsiz” deganidir. Istilohda esa “zaif hadis” deb sahih yoki hasan hadisning sifati topilmagan hadisga aytiladi.⁵⁰

Shu bilan birga Imom Navaviy ham oʻzining “Taqrif va at-Taysir” kitobida “Zaif – sahih yoki hasanning shartlarini jamlamagan hadis hisoblanadi.”, – deb taʼrif bergan⁵¹. Shu taʼrifni Jaloliddin Suyutiy “Tadrib ar-roviy fi sharh taqrif an-Navaviy”⁵² kitobida, Ibn Solah “Muqaddima fi ulum al-hadis”⁵³ kitobida keltirib oʻtishgan.

Imom Bayquniyning barchaga mashhur boʻlgan “Manzumatul Bayquniya” asarida “zaif hadis”ni taʼriflab, shunday deydi:

وَكُلُّ مَا عَنْ رُتْبَةِ الْحُسْنِ قَصُرُ
فَهُوَ الضَّعِيفُ وَهُوَ أَقْسَامًا كَثُرُ

Bu taʼrifda aynan hasanlik darajasi zikr etilgan ammo sahihlik darajasi zikr etilmagan sababi hadis hasanlik darajasi yetishmasa, sahihlik darajasiga ham yetishmasligi hisoblanadi.

⁴⁷ Ibn Munzir, Lisan al-arob. – Qohira: Dar al-maorif, 2016. – B 2587.

⁴⁸ Ibn Munzir, Lisan al-arob. – Qohira: Dar al-maorif, 2016. – B 2587.

⁴⁹ Muhammad ibn Yaqub Feruzobodiy, al-Qomus al-muhit. – Qohira: Dar al-Hadis al-Qohira, 2008. – B 975.

⁵⁰ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B. 135.

⁵¹ Imom Navaviy, Taqrif vat-Taysir. – Urdun: Dar ul-asariyya, 2008. – B. 82.

⁵² Imom Jaloliddin Suyutiy, Tadrib ar-roviy fi sharh taqrif an-Navaviy. J. I. – Ar-Riyod: Maktabatu al-Kavsar, 1994. – B. 195.

⁵³ Ibn Solah, Muqoddimatu ibn Solah fi ulum al-hadis. – Bayrut: Dar al-Fikr, 2009. – B. 41.



Muhammad Avvoma o'zining "Zaif hadisga amal qilishning hukmi" kitobida: "Zaif hadis – sanadi va matnida maqbul hadis, ya'ni sahih va hasanning sifatlari topilmagan hadisdir.", – deb ta'riflagan.⁵⁴

Zaif hadisning zaifligi, sahih hadisda tafovut bo'lgani kabi tafovutli bo'lib, roviylarining zaifligi og'ir yoki yengil bo'ladi. Ba'zilar "zaif", ba'zilar "juda ham zaif", undan zaifi "vohiy" va undan quyi darajadagisi "munkar" deyiladi. Bu navlarning eng yomoni "mavzu hadis" hisoblanadi⁵⁵.

Hadislar bir necha sabbalarga ko'ra zaif bo'lib qoladi: *Sanadning uzilib qolishi sababli*. Bu – sanad zanjirining uzilishi bo'lib, unda bir yoki bir nechta roviy tushib qolgan bo'ladi. Bu tushib qolish ba'zi roviylar tomonidan qasddan yoki qasddan bo'lmagan holda sodir bo'ladi. Bunday isnoddan roviyning tushib qolishi sanadning boshidan, oxiridan yoki o'rtasidan yuz berishi mumkin. U ikki ko'rinishda bo'ladi: 1) Zohir – bu turdagi isnoddan roviyning tushib qolishini muhaddis imomlar ham, hadis ilmi bilan shug'ullanuvchilar ham birdek bilishadi. Bunday tushib qolish roviy bilan uning shayxi o'rtasida uchrashuv bo'lmaganligi orqali ma'lum bo'ladi. Bu ikki holatdan biri bo'lishi mumkin: roviy shayxining davriga umuman yetmagan bo'ladi yoki davriga yetgan bo'lsa, hech qachon u bilan uchrashmagan bo'ladi⁵⁶. 2) Maxfiy – bu turdagi isnoddan roviyning tushib qolishini faqat hadis yo'llari va isnod illatlarini chuqur biladigan, tajribali, mohir imomlargina fahmlay oladilar.

Adolatning yo'qligi sababli. Bu roviyning adolatiga ta'na yetgan bo'lishidir. Adolatga bog'liq ta'nalar – yolg'onchilik, yolg'onchilikda gumon qilish, fosiqlik, bid'atchilik, johillik ya'ni bilimsizlikdan iborat hisoblanadi.

Zabtning yo'qligi sababli. Bu roviyning zabtida xabarlarini o'zgartirmay saqlab qolishiga va yodlash qobiliyatiga ta'na yetgan bo'ladi. Masalan, bir kishi roviy haqida: "Bu odamning xotirasi uncha yaxshimas edi, eshitgan gapini esdan chiqarib qo'yar edi" deyishi ana o'sha roviyning zabtiga putur yetkazadi. Zabtga bog'liq ta'nalar – qattiq adashish, ya'ni xatosi nihoyatda katta bo'lishi, yomon hifzli (xotirali) bo'lishi, g'ofillik, vahm (tagi yo'q narsalar) ni ko'p gapirish, siqo (ishonchli) roviylarga xilof qilishdan iborat hisoblanadi.

Shoz bo'lishi. "Shoz" so'zi "ko'pchilikdan ajrab qolgan", "yakkalanib qolgan" degan ma'noni ifodalaydi. Istilohda esa, ishonchli roviyning rivoyatda o'zidan ko'ra ishonchliroq bo'lgan kishiga xilof qilishiga nisbatan

⁵⁴ Muhammad Avvoma, Zaif hadisga amal qilishning hukmi. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 30.

⁵⁵ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – B.136.

⁵⁶ Muhammad Tahhon, Taysir Mustalah al-Hadis. – Quvayt: Maktabatu al-haramayn, 2002. – B. 82-83.



ishlatiladi⁵⁷.

Illatli bo'lishi sababli. “Illat” – hadisning sahifligiga putur yetkazuvchi noaniq va maxfiy sababdir. Illatning ushbu ta'rifidan ma'lum bo'ladiki, “illat” hadis ulamolarining nazdida ikki shart a) noaniqlik va maxfiylik, b) hadisning sahifligiga putur yetkazadigan holatni o'zida jamlaydi.

Mavzu hadislarni ham to'qish sababalari bo'lib, ular *Alloh taologa qurbat hosil qilish maqsadida* ya'ni odamlarni yaxshilikka targ'ib qilish, yomon ishlardan qaytarish va qo'rqitish maqsadida yolg'ondan hadis to'qiladi. Bunday hadislarni to'quvchilar ko'prok zohidlikka, ahli salohlikka mansub kishilardan bo'ladi. Mana shular yolg'on hadis to'quvchilarning eng yomoni hisoblanadi. Chunki odamlar uning zohidligini bilib aytgan gapini qaytarmasdan qabul qiladilar. *O'z mazhabiga yon bosish maqsadida* ya'ni siyosiy firqalarning va mazhablarning odamlari shu ishni ko'p qiladilar. Bu ish musulmonlarning ichida fitna zohir bo'lganidan, siyosiy firqalar yuzaga chiqqanidan, havorij, shialarga o'xshagan toifalar paydo bo'lganidan keyin boshlangan. Bir-biri bilan tortishayotgan har bir guruh, firqa o'zining mazhabini qo'llash maqsadida yolg'on hadislarni to'qishga o'tganlar. *Islomga zarar yetkazish maqsadida* ya'ni bunday hadislarni to'quvchi kishilar zindiqlar hisoblanadi. Ular Islomga ochiq-oydin zarar yetkaza olmaganlaridan so'ng, mana shu iflos yo'l bilan Allohning diniga zarar yetkazish payida bo'lganlar va bir qancha hadislarni to'qib, Islomni qoralash, unga ta'na yetkazishni qasd qilganlar. *Hokimlarga tilyog'lamalik qilish maqsadida* ya'ni ba'zi iymoni zaif kishilar hokimlarga yaqinlashish maqsadida ularning ko'nglini olib, dunyoviy maqsadini hosil qilish niyatida yolg'on hadislarni to'qiganlar. *Kasb va rizq talab qilish maqsadida* ya'ni ba'zi qissachilar odamlarga yoqish uchun, ularning maqtovini, ixlosini qozonsam, besh-to'rt so'mlik bo'lib olaman, mulkim ko'payadi, degan niyat bilan yolg'ondan hadis to'qiydilar. Bular turli qissalar bilan odamlarning ko'nglini olib, og'zini ochirib, xursand qilib, pulini olishga urinadigan shaxslar bo'lgan. *Shuhrat qozonish maqsadida* ya'ni odamlar “Hech kim bilmaydigan narsani aytibdi, zo'r ekan”, deyishlari uchun, hadislarning sanadini o'zgartirib, roviylarini ham almashtirib, eshitgan odamni qoyil qoldirish maqsadida rivoyat qilishgan.

Xulosa qilib aytganda, maqolada “zaif” atamasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari, uning hadis ilmidagi ilmiy qo'llanilishi tahlil qilindi. “Zaif” so'zi arab tilida jismoniy yoki biologik holatdagi kuchsizlikni, ma'naviy va aqliy

⁵⁷ Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. — Toshkent.: Hilol-nashr, 2021. —



zaiflikni ham ifodalovchi keng ma'noga ega tushuncha hisoblanadi. Qiroat va lahjalardagi farqlar ushbu so'zning ma'nosiga sezilarli o'zgarish kiritmaydi, uning ifoda ohangini va kontekstual talqinini boyitadi.

Hadis ilmi nuqtai nazaridan "zaif hadis" sahih va hasan hadislar mezonlariga javob bermaydigan rivoyat sifatida baholanadi. Bunday hadislarining zaiflik sabablari sanad uzilishi, roviy adolatining buzilishi, zabt nuqsoni, shozlik va illat kabi omillar bilan bog'liq ekani ilmiy manbalarda asoslab berilgan. Zaiflik darajalari ham bir xil emasligi, ularning og'irlik darajasiga ko'ra turli kategoriyalarga ajratilishi hadis metodologiyasining nozik va murakkab tizimga ega ekanini ko'rsatadi.

Zaif hadislar islom ilmiy merosida alohida o'rganiladigan qismi bo'lib, ularning kelib chiqish sabablari nafaqat ilmiy balki ijtimoiy-diniy omillar bilan ham bog'liq hisoblanib, mavzu hadislarining paydo bo'lishi tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Ibn Faris. Mu'jam al-maqoyis al-lug'ati. – Bayrut: Dar al-Fikr, 2007.
2. Ibn Munzir, Lisan al-Arob. – Qohira: Dar al-maorif, 2016.
3. Muhammad ibn Yaqub Feruzobodiy, al-Qomus al-muhit. – Qohira: Dar al-hadis al-Qohira, 2008.
4. Imom Navaviy, Taqrib vat-Taysir. – Urdun: Dar ul-asariyya, 2008.
5. Imom Jaloliddin Suyutiy, Tadrib ar-roviy fi sharh taqrib an-Navaviy. – Ar-Riyoz: Maktabatu al-kavsar, 1994.
6. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mustalahul Hadis. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021.
7. Ibn Solah, Muqoddimatu Ibn Solah fi Ulum al-Hadis. – Bayrut, Dar al-fikr, 2009.
9. <https://xadicha.uz/uz/news/>
10. <https://islom.uz/>